



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

AZIM SAMARQANDDAN ISTANBULGACHA: ALI QUSHCHI HAYOTI VA FAOLIYATI

Rashidova Feruza Shomuxammedovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, dotsent (PhD)

Ne'matjonova Oydiyoy Ne'matjon qizi

Samarqand davlat universiteti, II bosqich talaba

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bekning shogirdi, "O'z davrining Ptolomeyi" deb ulug'langan Ali Qushchining hayot yo'li, ilmiy faoliyati, "Qushchi" nomining kelib chiqishi, u yozgan asarlarda keltirilgan ma'lumotlar, olimning ilmiy hamda elchilik safarlari, Sulton Mehmet II Fotih bilan munosabatlari, hozirgi kunda alloma merosiga bo'layotgan e'tiroflar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Ali Qushchi, farzandi arjumand, Hazrati Bashir, Ulug'bek kutubxonasi, Sulton Mehmet II Fotih.

ОТ САМАРКАНДА ДО СТАМБУЛА: ЖИЗНЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АЛИ КУШЧИ

Рашидова Феруза Шомухаммедовна

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, доцент (PhD)

Неъматжонова Ойдиной Неъматжон кизи

Самаркандский государственный университет, студентка II курса

Аннотация

В данной статье представлена информация о жизни и научной деятельности Али Кушчи, ученика Мирзо Улугбека, которого почитали как «Птолемея своего времени», о происхождении имени «Кушчи», об информации, содержащейся в его трудах, о научных и дипломатических поездках ученого, о его отношениях с султаном Мехмедом II Завоевателем, а также о современном признании наследия ученого.

Ключевые слова: Али Кушчи, любимый сын, Хазрати Башир, библиотека Улугбека, Султан Мехмед II Победитель.

FROM SAMARKAND TO ISTANBUL: THE LIFE AND WORK OF ALI QUSHCHI

Rashidova Feruza Shomuxammedovna

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Associate Professor (PhD)

Ne'matjonova Oydiyoy Ne'matjon qizi

Samarkand State University, 2nd-year student

Abstract

This article provides information about the life and scientific activities of Ali Kushchi, a disciple of Mirzo Ulugbek, who was honored as the "Ptolemy of his time", the origin of his name "Kushchi", the information contained in his works, his scientific and diplomatic trips, his relations with Sultan Mehmet II the Conqueror, and the current recognition of the scholar's legacy.

Keywords: Ali Kushchi, beloved son, Hazrati Bashir, Ulugbek library, Sultan Mehmet II Conqueror.

Dunyo tarixiga nazar tashlasak, har bir davlat siyosati, madaniyati, ilm-fani qo'shni davlatlar ta'sirida yohud ular bilan yaxshi aloqalar yo'lga qo'yilishi natijasida rivojlangan. Bu jarayon hozir ham shunday davom etmoqda. Hozirgi vaziyat ko'zi bilan qarasaq, bu juda oson ko'rinadi. Nega?! Chunki dunyoning istalgan nuqtasiga qisqa muddatda yetib borish uchun transport vositalari yetarli. Afsuski, qadimgi davr, o'rta asrlar yoki yangi davrga qarasaq ham o'sha vaqtlarda bu oson bo'lmagan. Lekin, turli sabablarga ko'ra olimlar o'z vatanidan ketishga majbur bo'lishgan. Bilimlarini esa qo'nim topgan davlatlaridagi ilmiy toliblarga ulashishgan. Ana shunday o'z zamonasidagi notinchliklar tufayli vatanini tark etishga majbur bo'lgan olimlardan biri Alovuddin Abulhasan Ali ibn Muhammad Samarqandiydir. Allomani biz Ali Qushchi nomi orqali taniiymiz.

Ali Qushchi 1403-yilda Samarqandda tavallud topdi. Aytishlaricha, Ulug'bek qush ovini juda sevgan, hatto, Bobur Ulug'bekni hazil-mutoyiba aralash "Qushchi poshsho" deb ham atagan; Ali Qushchining otasi va keyinchalik Ali Qushchining o'zi ham Ulug'bek qarchig'ayini boqqanlar, shunga ko'ra, ular "qushchi" deb atalgan [5,82]. Lekin U. Pazilovning so'zlariga e'tibor qaratsak, uning ismi Qushchi emas, balki Qutji bo'lganligini bilib olamiz. Otasi esa Amir Temur qarorgohi qorovuli bo'lgan [6,208]. Qutji urug'i boy turkiy urug'laridan sanalgan. Keyinchalik so'zlarda talaffuzning o'zgarishi natijasida Qutji atamasi bizga Qushchi shaklida yetib kelgan. Ali Qushchining otasi vafot etgach, Mirzo Ulug'bek uni o'z tarbiyasiga oladi. Bo'lajak olim diniy, falsafiy bilimlarni Samarqand madrasalarida oladi, matematika va astronomiyaga oid bilimlarni esa, Mirzo Ulug'bek va Qozizoda Rumiyan o'rganadi. U astronomiya, matematika, geografiya, geometriya, falsafa, tarix va tilshunoslik fanlarini mukammal darajada o'rgandi. Ulug'bekning Ali Qushchiga mehr qo'yganini uning qalamiga mansub "Zij"ning so'zboshisida, "farzandi arjumand" deb aytganidan ham bilish mumkin. Ali Qushchining ilmiy nujum va riyoziyotga bo'lgan qiziqishi uni hatto otasidek bo'lib qolgan Ulug'bekdan beruxsat Samarqanddan Kirmon tomon boshladi. Kirmonda biroz muddat mahalliy olimlardan ilm o'rganadi va yana Samarqandga, Ulug'bek huzuriga qaytib uzr so'raydi, Kirmonda yozgan "Risola ashkol al qamar" nomli astronomiyaga oid birinchi asarini Ulug'bekka taqdim etadi [2,176]. U Kirmonda bo'lgan vaqti Nasiruddin Tusiyning "Tajrid" asariga sharh ham yozdi. Samarqandga kelgach, Ulug'bek madrasasida ta'lim olishni davom ettirgan. 1420-1430-yillarda madrasa ta'limini tugatgach, shu yerda dars berish uchun qolgan.

1424-yilda Mirzo Ulug'bek rasadxonasi qurila boshlandi, bu qurulishga Jamshid Koshiy va Qozizoda Rumiyan boshchilik qilishi kerak edi. Ular vafot etgani uchun astronomik kuzatishlarga boshchilik qilish vazifasi Ali Qushchiga yuklatiladi. U rasadxonada Mirzo Ulug'bek vafotigacha faoliyat olib boradi. Bu davrda uning qo'l ostida 100 ga yaqin olimlar astronomiya, matematika fanlari bilan shug'ullanishgan. Ali Qushchi Ulug'bekning eng ishongan shogirdi desak, xato bo'lmaydi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi dalilni keltiramiz: Alloma hukmdorning farmoni bilan Xitoyga ilmiy sayohatga jo'natiladi. Ushbu sayohat natijasida to'plagan bilimlari asosida "Tarixi hoqoni Chin" asarini yozadi. Ali Qushchining bu kitobi 1863-yil Istanbulda bosilib chiqqan va fransuz olimi Charl Shoper tomonidan 1883-yil Parijda qayta nashr qilingan [5,83]. 1851-yilda Fleysher uni nemis tiliga tarjima qilgan. Bu asarda Xitoyga boradigan yo'ldagi mamlakatlar, ularda yashovchi xalqlar, ularning madaniyati, tarixi va Temuriylar davlatining Xitoy bilan madaniy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan olib borgan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Samarqand ilmiy maktabi topshirig'i bilan Ali Qushchi Xuroson, Hirot va Sharqiy Turkistonga ilmiy ekspeditsiyaga jo'naydi.

Ali Qushchi ham ishonchga munosib shogird bo'lishga harakat qildi. Jumladan, Amir Temur Turkiyaga yurishi vaqtida Bursada qadimiy va boy kutubxonani mavjudligi haqida xabar topgan va tezda bu kutubxonani topishga farmon bergan, kutubxonani topilgach, undagi kitoblarni Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabiga sovg'a qilgan edi. Shu tariqa kitoblar Samarqandga ko'chirilgan. Ulug'bek vafot etgach, kutubxonani xavf ostida qoladi. Rivoyatlarga qaraganda, Ali Qushchi bu

kutubxonani saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Olim Ulug'bek vafotidan so'ng ancha muddat Samarqanddan ketmagan, kitoblarni o'zi yaxshi bilgan Hazrati Bashir qishlog'idan uzoq bo'lmagan Niyoztepadagi g'orlardan biriga yashirgan. Lekin kitoblarning hammasini olib keta olmagan bo'lsa kerak, sabab kutubxonada 15 mingdan ortiq kitoblar bo'lgan.[1, 21] Ali Qushchi faqat noyob kitoblarnigina olib ketgan bo'lishi ham mumkin. Hozirgi Urgut tumaniga to'g'ri keluvchi bu hududda qutji urug'i vakillari yashagan va hozir ham yashab kelmoqda.

1469-yil Eronga yurish chog'ida Ali Qushchini homiyligiga olgan Abu Said Mirzo ham vafot etgach, uning oilasi ta'qibga uchraydi. Samarqanddagi notinchliklar uni Kirmon tomon ketishga majbur qiladi. Kirmonda ilmiy izlanishlarni davom ettiradi, Qushchi maktabi bu yerda 10 yil faoliyat olib bordi. Shundan so'ng, Olim Uzun Hasan [2,176] iltimosi bilan Usmonli hukmdori Mehmet II yoniga keladi. Fotih Mehmet Sulton uni yaxshi kutib oladi va Istanbulda doimiy yashashni taklif qiladi. Ali Qushchi ham sulton taklifini qabul qilib, 200 nafar qarindoshlari bilan shaharga ko'chib keladi.

Olimning Istanbulga kelishi shaharda astronomiya sohasini jonlantirib yubordi. Istanbuldagi Ayo Sofiya madrasasiga kuniga 200 kumush tanga maosh bilan birinchi marta mudarris lavozimiga tayinlangan Ali Qushchi, bu yangi kelgan shaharning taniqli olimlari bilan uchrashib, ilmiy munozaralar olib bordi. Manbalarda aytilishicha, olim Istanbul qozisi Xojazoda Muslihuiddin Afandi (1434-1488) bilan Uskudardan Rumeliyagacha qayiqda sayohat qilib, safar davomida suv toshqinlari haqida fikr almashishdi. Fotih majmuasi uchun dasturlarni ham ishlab chiqqan Ali Qushchu madrasada astronomiya va matematikadan ham dars bergan. Uning madrasadagi ma'ruzalariga nafaqat talabalar, balki o'sha davrning yetakchi olimlari ham qatnashgan.[3] Masalan, Eyubsulton shahar hokimligi gazetasi bergan ma'lumotlariga ko'ra, Sinon Posho shogirdi mulla Lutfiyni Ali Qushchining darslariga yuborgan va shogirdi vositasida Ali Qushchi bilimlarini o'zlashtirgan.

Istanbulda bir yildan ziyodroq yashagan bo'lishiga qaramay, u tolibi ilmlarga nafaqat astronomiya ilmidan, balki, fiqh va kalom ilmidan ham dars bergan. Uning vafoti haqida aniq ma'lumotlar bizga nevarasi Miram Chalabiy orqali yetib kelgan:

Rahnomoyi ilm Mavlono Ali Qushchi,

Chun bi-suyi ravzayi rizvon biraft:

Bud zi hijrat hashtsadu haftodu no'h,

Ruzi shanba haftumi sha'bon biraft

Tarjimasi:

(Ilm-fan rahnomosi Mavlono Ali Qushchi,

Jannat gulzori sari yuzlangan vaqt:

Hijratdin sakkiz yuz yetmish to'qqizinchi yil,

Shanba kuni sha'bonning yettinchi kuni)

Bu sana milodiy 1474-yil 17-dekabrda to'g'ri keladi. Ali Qushchi Istanbuldagi Ayub Sulton maqbarasiga dafn etildi. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarining G'arb olamiga yetib borishiga bevosita Ali Qushchi aloqador desak xato bo'lmaydi. Olim vafotidan so'ng uning ishlarini yaqinlari va shogirdlari - Miram Chalabiy, Husayn Birjandiy, Bahovaddin Omuliy, Najmiddin Alixonlar davom ettirishdi.[4, 211]

Ali Qushchi "Risola-fi-l-hisob", "Risolayi qusur", "Risola al-fathiya", "Risola al-Muhammadiya fi-l-hisob", "Risola fi halla ash-shakl al-hilol", "Sharhi Miftoh al-ulumi Taftazoniy", "Risola dar ilmi hay'at", "Sharhi Ziji Ulug'bek", "Sharhi risolai Tuhfai shohiya", "Sharhi risolai Sullam as-samo", "Xitoyнома", "Risolai mantiq", "Sharhi tajvidi Xoja", "Risola al-Mufradiya", "Mahbub ul-hamoyil fi kashfil masoyil", "Risola muta'ollika bi kalimat at-tavhid", "Risola tata'llaq bi kuiya", "Risola al-istiorot", "Sharh ar-risola al-Azudiya", "Al-unut va zavahir fi nazmil javohir", "Risola al-mujas fit-tibb", "Sharh risola al-fiqh", "Risola fi hall al-misol al-handasa" kabi asarlar yozgan. Bulardan bizgacha yetib kelganlari Qozon universiteti kutubxonasi, Ayo Sofiya kutubxonasi, Parij milliy kutubxonasi. O'zbekiston Respublikasi FA

Sharqshunoslik institutida, Leyden universiteti kutubxonasida, Sankt-Peterburg ommaviy kutubxonasida, Berlin, Rim, Tehron, shuningdek, Buyuk Britaniya, Hindiston davlati kutubxonalarida saqlanadi.

Bulardan “Mu’jaz fi-t-tibb” (“Tibbiyotning qisqacha bayoni”) asari tibbiyotga doir. “Risola dar ilmi hay’at” (“Astronomiya haqida risola”) yulduzlar haqidagi bu kitobi esa fors tilida yozilgan. [4, 207] Bu asarni Ibrohim Mo’minov o‘zbek tiliga tarjima qilgan bo‘lsa, turk olimi Abdulloh Afandi uni turk tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo‘lgan. Ali Qushchining “Risolayi fathiya” asariga Miram Chalabiy sharh yozib qoldirgan. Olim “Kitob ul- Muhammadiya” (dastlabki nomi “Hisob haqida risola”) asarini fors tilida yozib uni Sulton Mehmet II Fotihga sovg‘a qilgan. Bu kitobdagi formulalar keyinchalik Nyuton tomonidan ishlab chiqilgan Nyuton binomi yoki Ruffini Gorner sxemasiga mos keladi. [4, 201] Ali Qushchi matematikaga birinchi bo‘lib “musbat” (+) va “manfiy” (-) atamalarini kiritgan, asarning geometriya bo‘limida esa shakllar sirtini hisoblash uchun formulalar keltirilgan. Bu formulalar Ali Qushchidan oldingi davrda yashagan olimlarning asarlarida uchramaydi.

Ali Qushchining “Astronomiya haqida risola” asariga alohida to‘xtalib o‘tish joizdir. Bu asar 1437-yil Samarqandda yozilgan, u kirish va ikki bobdan iborat. Olim birinchi bobda geometriyaga doir ilmiy atamalarga tavsif berib chiqqan, fazoviy sferalar xususiyatlari haqida ham to‘xtalgan va eng asosiysi, unda Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan kuzatuv natijalari asosida aniqlangan sayyoralar o‘rinlari, perigeliy (Yerning Quyoshga eng yaqinda turadigan nuqtasi), afeliy (Yerning Quyoshdan eng uzoqda turadigan nuqtasi) haqida ma’lumotlar va jadvallar berilgan. Ikkinchi bobda esa tabiiy geografiyaga doir ma’lumotlar keltiriladi. Bunda barcha moddalar to‘rt tarkibiy unsur: yer, suv, olov, havodan iborat ekanligi ta’kidlangan. Bu asar nusxalari hozirgi kunda Toshkent, Peterburg, Mashhad, Parij, Oksford, London, Kembrij va Istanbulda mavjud.

Ali Qushchi o‘z davrida ijod etgan olimlarning asarlarini diqqat bilan o‘rgangan va ularga sharh yozgan. Bularga Ulug‘bekning “Ziji Ulug‘bek”, Nasiriddin Tusiyning “Ziji Elxoniy”, Qutbiddin Sheroziyning “Tuhfat ash-shohiya fil-hay’at”, Taftazoniy va Qozi A’zuddinlarning falsafa, huquq, tilshunoslik asarlari ham kiradi.

Olimlardan K. Brokkelman, T.N.Niyozov, A.Nosirov va boshqalar olimning hayoti va ijodini o‘rganganlar. Ali Qushchi nomi hozirda jahon e’tibori va e’tirofida. Xususan, 2024-yil YUNESKO tomonidan “Ali Qushchi” yili deb e’lon qilindi. Shu munosabat bilan Turkiyada Ali Qushchiga bag‘ishlab bir necha simpoziumlar o‘tkazildi. Istanbul viloyati hokimi Davul Gyul Ali Qushchini “Istanbul va Samarqand orasida ma’rifiy ko‘prik” deb atadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Ali Qushchi nafaqat matematika, astronomiya sohasi, balki geografiya, tarix fani rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning sa’y-harakatlari natijasida astronomiya ilmi Istanbul orqali Yevropaga ham yetib bordi. Biz allomaning ilmiy merosini yaxshilab o‘rganishimiz va shunga munosib avlod bo‘lmog‘imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдурахмонов А. Улугбек Академияси. Тошкент -1994.
2. Ма’naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mahshur siymolar, allomalar, adiblar). Toshkent-1999.
3. Melek Dosay Gökdoğan. Ali Kuşçu (1403?-1474) - Osmanlı Bilgini // <https://turkdunyasiansiklopedisi.gov.tr/detay/815/Ali-Ku%C5%9F%C3%A7u>- 2024-yil 30.03.
4. Аҳадова М. Ўрта Осиёлик машхур олимлар ва уларнинг математикага доир ишлари. Т., “Ўқитувчи”, 1983.
5. Ирисов А., Носиров А., Низомиддинов Н. Ўрта Осиёлик қирқ олим. Тошкент -1961.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. Т., “ЎзМЭ” нашриёти, 2000.